vojiga bog‘liq. Xususan, ingliz tilida professional muloqot qila olish rahbar uchun global muhitda muhim strategik ustunlik yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarni shakllantirish tizimli yondashuv asosida – tashqi muhit, ta’lim tizimi va boshqaruv jarayonlari o‘zaro bog‘liqligida amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda iqtisodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya va shaxsiy rivojlanish uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib, bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, ayniqsa ingliz tilidagi kompetensiyalarni integrativ rivojlantirish ularning kasbiy muvaffaqiyati va global raqobatbardoshligini ta’minlaydi

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak rahbar kadrlarning iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu yo‘nalishda quyidagi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashda iqtisodiyot, menejment, kommunikatsiya va ingliz tilini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish Shu maqsadda integrativ o‘quv dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bu yondashuv talabalarda iqtisodiy fikrlash va professional muloqotni birgalikda rivojlantirib, ularni real boshqaruv faoliyatiga tayyorlaydi.

Ikkinchidan, rahbarlar uchun kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim bo‘lib, buning uchun debat, taqdimot, role-play va muzokara mashg‘ulotlaridan ko‘proq foydalanish lozim. Ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishni rivojlantirish talab etiladi. Bu talabalarda fikrni aniq yetkazish, jamoani boshqarish va global muhitda samarali aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni. https://lex.uz/

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 606-qarori https://lex.uz/

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF–6079-farmoni. https://lex.uz

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2025) “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–73-farmon. https://lex.uz

(5). Yukl G.A. (2013). *Leadership in organizations* (8th ed.). Pearson Education.

(6). Liu E.H., Chambers C.R., & Moore C. (2023). Fifty years of research on leader communication: What we know and where we need to go. The Leadership Quarterly. https://doi.org/10.1016/j.leaqua.2023.101678

(7). Figueiredo P.C.N., Sousa M.J., & Tomé E. (2022). Integrative model of the leader competences. European Journal of Training and Development, 47(5/6), p. 533–564. https://doi.org/10.1108/EJTD-04-2021-0055

(8). Chen L., & Wu J. (2023). English language proficiency as a determinant of global leadership effectiveness. Leadership & Organization Development Journal, 44(3), p. 245–260.

(9). Musaxanova, G.M. (2023). Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies), 11(2), 408–414.

(10). Sultonmurotova S.M. (2025). Effectiveness and development prospects of digital-pedagogical integration in English language education. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(5), p. 16–20.

(11). Dr. Shirisha Deshpande, Dr.A.Vijayalakshmi, Dr.Ajatashatru Samal, Poornima U., Kotehal Dr. Chethan kumar K,&Dr.B.Muthukrishnan. (2024). The Role of Effective Communication in Leadership: A Comparative Analysis of English Language Skills and Management Strategies. Evolutionary studies in imaginative culture, 1434–1441. https://doi.org/10.70082/esiculture.vi.1513.

Otajonova Mexriban Shanazarovna (Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Urganch, O‘zbekiston; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

“ISHONCH” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDAGI MAZMUNIY-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada “ishonch” konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi mazmuniy-struktur xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Konseptning yadroviy va periferik semalari, lingvomadaniy komponentlari, leksik-frazeologik ifodalanish vositalari hamda baholovchi-pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida “ishonch” konsepti har ikki tilda umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsada, uning mazmuniy ko‘lami, madaniy assotsiatsiyalari va nutqiy voqelanishida milliy o‘ziga xosliklar mavjudligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *ishonch, konsept, lingvokulturologiya, semantika, pragmatika, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Отажонова Мехрибан Шаназаровна (Независимый исследователь Каракалпакского государственного университета, Ургенч, Узбекистан; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «ДОВЕРИЕ» В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ семантико-структурных особенностей концепта «доверие» в английской и узбекской лингвокультурах. Рассматриваются ядровые и периферийные семы концепта, его лингвокультурные компоненты, лексико-фразеологические средства выражения, а также оценочно-прагматические характеристики. В результате исследования установлено, что, несмотря на наличие общего когнитивного основания концепта «доверие» в обоих языках, он характеризуется национально-культурной спецификой в плане семантического объёма, культурных ассоциаций и особенностей речевой реализации.*

Ключевые слова: *доверие, концепт, лингвокультурология, семантика, прагматика, английский язык, узбекский язык.*

Otajonova Mekhriban Shanazarovna (Independent Researcher of Karakalpak State University, Urgench, Uzbekistan; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

SEMANTIC AND STRUCTURAL FEATURES OF THE CONCEPT OF "TRUST" IN ENGLISH AND UZBEK LINGUOCULTURES

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the semantic and structural features of the concept of "trust" in English and Uzbek linguocultures. The study examines the core and peripheral semantic components of the concept, its linguocultural dimensions, lexical and phraseological means of expression, as well as its evaluative and pragmatic characteristics. The findings demonstrate that, although the concept of "trust" in both languages is based on a shared cognitive foundation, it exhibits distinct national and cultural specificities in terms of its semantic scope, cultural associations, and patterns of discursive realization.*

Keywords: *trust, concept, linguoculturology, semantics, pragmatics, English language, Uzbek language.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda konseptlar muammosi til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yoritishda markaziy nazariy kategoriyalardan biri sifatida qaralmoqda [1], [2]. Konsept inson ongida shakllanadigan, til vositasida verballashadigan va milliy-madaniy tajribani aks ettiradigan murakkab mental tuzilmadir [3], [4]. Shu ma’noda emotsional-aksiologik mazmunga ega bo‘lgan konseptlar, xususan "ishonch" konsepti, insonning borliqni qabul qilishida, shaxslararo munosabatlarni tashkil etishida, axborotga baho berishida va ijtimoiy xulqini belgilashida alohida ahamiyat kasb etadi.

"Ishonch" konsepti insoniyat tafakkurida universal xarakterga ega bo‘lgan tushunchalardan biridir. U nafaqat ruhiy holat yoki hissiy munosabat, balki shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va kommunikativ amaliyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qatlamli mental birlikdir. Mazkur konsept bir tomondan haqiqatga ichki moyillik, tayanch va barqarorlikni bildirsa, ikkinchi tomondan sadoqat, yaqinlik, e’tiqod, ishonchlilik, mas’uliyat va istiqbolga ijobiy qarash kabi semantik-pragmatik belgilarni o‘zida mujassam etadi [5], [6].

"Ishonch" konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi voqelanishi mazmuniy va struktur jihatdan qiziqarli ilmiy kuzatishlarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilidagi *trust, confidence, belief, faith, reliance* kabi birliklar "ishonch"ning turli semantik qirralarini ifodalasa, o‘zbek tilidagi *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch, umid* kabi birliklar ushbu konseptning milliy-madaniy ko‘lamini aks ettiradi [7], [8]. Shu bois bu konseptni ikki til materiali asosida qiyosiy-lingvokulturologik tahlil qilish har ikki xalqning dunyoni idrok etish usuli, baholash mezonlari va kommunikativ odatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ishonch hodisasi psixologiya, falsafa, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvomadaniy mazmuni hamda struktur tashkil topishi hali ham chuqur qiyosiy tadqiqni talab qiladi. Ayniqsa, konseptning yadrosi, periferiyasi, leksik-semantik ifodalanishi, metaforik va frazeologik tasviri, nutqiy va baholovchi funksiyalari milliy dunyoqarash bilan bog‘liq holda o‘rganilishi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi "ishonch" konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi mazmuniy-struktur xususiyatlarini aniqlash, uning konseptual yadrosi va periferik qatlamlarini tavsiflash, leksik-frazeologik ifodalanish vositalari hamda baholovchi-pragmatik funksiyalarini qiyosiy asosda yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

1) "ishonch" konseptining konseptologik va lingvokulturologik mohiyatini yoritish;

2) mazkur konseptning ingliz va o‘zbek tillaridagi semantik yadrosi va struktur qatlamlarini aniqlash;

3) “ishonch”ni ifodalovchi leksik, frazeologik va metaforik vositalarni qiyosiy tavsiflash;

4) konseptning baholovchi, aksiologik va pragmatik xususiyatlarini lingvomadaniy nuqtayi nazardan izohlash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot konseptologiya, lingvokulturologiya, kognitiv semantika va pragmatika yo‘nalishlaridagi nazariy qarashlar asosida olib borildi. Konseptning milliy-madaniy mazmunini aniqlashda S.A.Askoldov, Y.S.Stepanov, S.G.Vorkachev, V.A.Maslova, N.D.Arutyunova, E.S. Kubryakova kabi olimlarning nazariy qarashlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi [1], [3], [4], [5], [9]. Shuningdek, til va madaniyat munosabati, nutqiy ma’no hamda pragmatik talqin masalalarida G.Leech, G. Yule, A.Wierzbicka, G.Lakoff, M.Johnson va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy xulosalariga tayanildi [10], [11], [12], [13].

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Konseptual tahlil metodi orqali “ishonch” konseptining mazmuniy yadrosi, periferik zonasi, baholovchi va obrazli qatlamlari aniqlandi. Ushbu metod konseptning faqat lug‘aviy emas, balki mental va madaniy mazmunini ochish imkonini berdi [3], [4].

Qiyosiy-chog‘ishtirma metod ingliz va o‘zbek tillarida “ishonch”ni ifodalovchi til birliklarining mazmuniy va funksional xususiyatlarini taqqoslashda qo‘llandi. Bu metod universal va milliy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qildi [8], [14].

Semantik tahlil metodi *trust, confidence, belief, faith, reliance* hamda *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch* kabi birliklarning semantik komponentlarini ajratish va ularning o‘zaro munosabatini aniqlashda qo‘llanildi [7], [15].

Lingvokulturologik tahlil yordamida “ishonch” konseptining frazeologik, paremiologik, metaforik va madaniy ifodalanish modellari o‘rganildi. Bu yondashuv konseptning milliy ongda qanday shakllanganini tushuntirishga imkon berdi [5], [16].

Pragmatik tahlil orqali “ishonch”ning nutqiy aktlardagi ishtiroki, adresatga ta’siri, ijtimoiy munosabatlarni boshqarishdagi o‘rni va baholovchi funksiyasi ochib berildi [10], [11].

Material sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi izohli lug‘atlar, lingvistik tadqiqotlar, maqol-matal, frazeologik birliklar hamda badiiy va publitsistik matnlardagi tipik ifodalar umumlashtirildi.

Natijalar. “Ishonch” konseptining konseptual mohiyati. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “ishonch” konsepti har ikki lingvomadaniyatda insonning bilish faoliyati, shaxslararo munosabatlari va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan aksiologik konsept sifatida namoyon bo‘ladi. U epistemik, emotsional va ijtimoiy komponentlarni o‘zida birlashtiradi. Epistemik jihatdan “ishonch” ma’lumot yoki hodisaning haqqoniyligini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, emotsional jihatdan ruhiy xotirjamlik, ichki barqarorlik va ijobiy tayanchni ifodalaydi. Ijtimoiy jihatdan esa u sadoqat, yaqinlik, ishonchlilik va mas’uliyat bilan chambarchas aloqadordir [6], [9].

Konseptologik nuqtayi nazardan “ishonch” konsepti quyidagi uch qatlamli strukturaga ega ekani aniqlandi:

1) yadroviy qatlam – ishonish, tayanch, qabul, haqiqatga moyillik;

2) yaqin periferik qatlam – sadoqat, vafodorlik, e’tiqod, xotirjamlik, umid;

3) uzoq periferik qatlam – ijtimoiy nufuz, obro‘, kafolat, mas’uliyat, suyanch, ma’naviy yaqinlik.

Mazkur qatlamlar har ikki tilda mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuniy to‘ldirilishi va madaniy salmog‘i bir xil emas.

Ingliz tilida “ishonch” konseptining mazmuniy-struktur xususiyatlari. Ingliz tilida “ishonch” konsepti bir necha leksik birliklar orqali differensial tarzda ifodalanadi. Ulardan eng asosiylari *trust, confidence, belief, faith, reliance* birliklaridir [7], [15].

Trust birligi asosan shaxslararo ishonch, ishonchlilik va muayyan shaxs yoki institutga tayana olish ma’nolarini bildiradi. Bu birlikda ijtimoiy va etik komponent kuchli seziladi. *Trust* ko‘pincha halollik, mas’uliyat va barqarorlik bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Demak, ingliz lingvomadaniyatida ishonch ko‘p hollarda ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi.

Confidence birligi esa o‘ziga ishonch, vaziyatni nazorat qila olish, qat’iyat va ichki ishonchni ifodalaydi. Shu sababli ingliz tilida ishonch konsepti tashqi ijtimoiy tayanch bilan bir qatorda ichki psixologik tayanchni ham faol qamrab oladi. Bu holat individualizmga moyil madaniy kod bilan bog‘liq holda izohlanishi mumkin [12].

Belief va **faith** birliklari esa ishonchning e’tiqodiy, falsafiy yoki diniy qirralarini ifodalaydi. *Belief* ko‘proq bir fikr, g‘oya yoki qarashga ishonishni anglatsa, *faith* chuqur, barqaror, ko‘pincha diniy yoki axlo-

qiy tayanchga ega bo‘lgan ishonchni bildiradi. Demak, ingliz tilida “ishonch” konsepti semantik jihatdan ancha differensiallashgan va uning alohida qirralari maxsus birliklar bilan ifodalanadi.

Mazmuniy-struktur jihatdan ingliz tilidagi “ishonch” konseptida quyidagi komponentlar ustuvor ekani kuzatildi:

- reliability – ishonchlilik;
- certainty – ichki ishonch va qat’iyat;
- self-assurance – o‘ziga ishonch;
- faithfulness – sadoqat;
- institutional trust – tizim va institutlarga ishonch.

Bu esa “ishonch” konseptining ingliz lingvomadaniyatida shaxsiy, ijtimoiy va institutsional qatlamlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida “ishonch” konseptining mazmuniy-struktur xususiyatlari. O‘zbek tilida “ishonch” konsepti asosan *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch, umid* kabi birliklar orqali voqelanadi [8], [17]. Bu birliklar orasida *ishonch* konsept yadrosini tashkil etsa, boshqa birliklar uning yaqin va uzoq periferik qatlamlarini boyitadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida “ishonch” tushunchasi ko‘pincha faqat epistemik qabul yoki ichki psixologik tayanch sifatida emas, balki axloqiy-me’yoriy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni ishonch berish va ishonchni oqlash o‘zbek madaniyatida shaxsning odob-axloqi, vijdoni, or-nomusi va sadoqati bilan bog‘lanadi. “Ishonchni oqlamoq”, “ishonch bildirmoq”, “ko‘ngli to‘q bo‘lmoq”, “suyanadigan odami bor” kabi ifodalar bunga dalildir. Bu birliklarda ijtimoiy yaqinlik, ma’naviy tayanch va insoniy fazilatlar markaziy o‘rin tutadi.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi “e’tiqod” birligi “ishonch”ning diniy-ma’naviy qatlamini ifodalaydi. “Ko‘ngil to‘qligi” esa ishonchning ruhiy xotirjamlik va ichki osoyishtalik bilan bog‘liq qirrasini ko‘rsatadi. “Suyanch” birliklari esa insonning boshqa bir shaxsga yoki qadriyatga tayana olishini anglatib, konseptning munosabat va tayanch semasini kuchaytiradi.

Mazmuniy-struktur tahlil o‘zbek tilidagi “ishonch” konseptida quyidagi komponentlar ustuvor ekanini ko‘rsatdi:

- sadoqat va vafodorlik;
- ma’naviy yaqinlik;
- axloqiy poklik;
- ko‘ngil xotirjamligi;
- tayanch va suyanch;
- e’tiqodiy mustahkamlik.

Demak, o‘zbek lingvomadaniyatida “ishonch” konsepti ijtimoiy-axloqiy va emotsional-ma’naviy mazmun bilan ancha kuchli to‘ldiriladi.

“Ishonch” konseptining leksik-frazeologik ifodasi. Tahlillar har ikki tilda “ishonch” konsepti nafaqat alohida leksik birliklar, balki frazeologik va metaforik vositalar orqali ham faol verballashishini ko‘rsatdi. Ingliz tilida *to place trust in someone, to gain confidence, to keep faith, in safe hands, build trust* kabi birikmalar ishonchning quriluvchi, mustahkamlanadigan va saqlanadigan hodisa sifatida tasavvur qilinishini ko‘rsatadi. Bu yerda “ishonch” ko‘pincha moddiy qurilma yoki ijtimoiy kapital metaforalari bilan bog‘lanadi [13].

O‘zbek tilida esa “ishonch bildirmoq”, “ishonchni oqlamoq”, “ko‘ngil qo‘ymoq”, “ko‘ngli to‘q bo‘lmoq”, “suyanadigan odam”, “ishonchli tayanch” kabi birikmalar keng qo‘llanadi. Bu ifodalarda “ishonch” ko‘proq ko‘ngil, tayanch, yaqinlik va ma’naviy bog‘liqlik bilan aloqador holda metaforalashadi. Shunday qilib, ingliz tilida ishonch “barpo qilinadigan” va “boshqariladigan” resurs sifatida, o‘zbek tilida esa ko‘proq “ko‘ngilga yaqin”, “suyanib bo‘ladigan” va “oqlanishi kerak bo‘lgan” axloqiy-ruhiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik sathda ham muhim farqlar kuzatildi. Ingliz tilida ishonch ko‘pincha professional va institutsional munosabatlar bilan bog‘liq tarzda turg‘unlashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida shaxslararo yaqinlik, oila, jamoadagi munosabat va insoniy fazilatlar bilan bog‘liq ifodalar ustunlik qiladi. Bu holat milliy dunyoqarash va kommunikativ madaniyatdagi tafovutlarni aks ettiradi.

“Ishonch” konseptining baholovchi-pragmatik xususiyatlari. “Ishonch” konsepti har ikki tilda ijobiy aksiologik qiymatga ega konseptlardan biri ekani aniqlandi. U, odatda, ijtimoiy jihatdan ma’qullanadigan, axloqiy va kommunikativ jihatdan konstruktiv hodisa sifatida baholanadi. Shu bilan birga, uning pragmatik vazifalari ham rang-barangdir.

Nutqiy jarayonda "ishonch" quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- adresat bilan yaqinlik yaratish;
- axborotning haqqoniyligini mustahkamlash;
- ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish;
- ta'sirchanlik va ishontirish strategiyasini amalga oshirish;
- muallif yoki gapiruvchining ijobiy pozitsiyasini ko'rsatish [10], [11].

Ingliz tilida ishonch ifodasi ko'pincha aniqroq verbal markerlar orqali beriladi: *I trust you, I am confident, I believe, you can rely on me*. O'zbek tilida esa bunday ifodalar ko'proq emotsional va munosabatga yo'naltirilgan ko'rinishda namoyon bo'ladi: "sizga ishonaman", "ko'nglim to'q", "sizga suyanaman", "ishonchingizni oqlayman". O'zbek tilidagi variantlarda ijtimoiy yaqinlik va ma'naviy javobgarlik semalari kuchliroq seziladi.

Pragmatik jihatdan qaraganda, "ishonch" konsepti ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. U ayniqsa rasmiy, oilaviy, do'stona va tarbiyaviy diskurslarda yuqori faoliyat ko'rsatadi. Bu holat mazkur konseptning nafaqat semantik, balki ijtimoiy-pragmatik kategoriyaga aylanganini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari "ishonch" konsepti ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida umumiy kognitiv asosga ega bo'lsa-da, uning mazmuniy to'ldirilishi va struktur tashkil topishi milliy-madaniy omillar bilan sezilarli darajada shartlanganini ko'rsatdi. Har ikki tilda ham ishonch haqiqatni qabul qilish, tayanch topish va ijobiy baholash bilan bog'liq. Biroq bu umumiylik konseptning voqelanish shakllaridagi farqlarni inkor etmaydi.

Ingliz tilida "ishonch" konsepti semantik jihatdan differensiallashgan holda, bir necha alohida birliklar orqali ifodalanadi. Bu esa konseptning ichki tarkibi ancha tarmoqlashganini bildiradi. Shaxslararo ishonch, o'ziga ishonch, e'tiqodiy ishonch va tizimlarga ishonch alohida leksik shakllar bilan ifodalanishi ingliz lingvomadaniyatining analitik va ijtimoiy-funksional xarakterini namoyon qiladi.

O'zbek tilida esa "ishonch" konsepti ko'proq integrallashgan holda, bitta asosiy yadroviy birlik atrofida turli ma'naviy, axloqiy va emotsional qirralarni birlashtiradi. Bu holat o'zbek lingvomadaniyatida ishonchning shaxslararo yaqinlik, insoniy fazilat, sadoqat va ma'naviy poklik bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ya'ni ,o'zbek tilidagi "ishonch", ko'pincha, epistemik hodisadan ko'ra kengroq ijtimoiyaxloqiy kategoriya sifatida yashaydi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaraganda, ingliz tilida "ishonch"ning institutsional qatlami ancha faol, o'zbek tilida esa interpersonal va ma'naviy qatlami ustun. Bu tafovut frazeologik birliklarda, baholovchi ifodalarda, nutq strategiyalarida va metaforik modellashtirishda yaqqol ko'rinadi.

Mazkur natijalar til o'qitish, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va diskurs tahlili uchun muhim xulosalar beradi. Xususan, "ishonch"ning ingliz va o'zbek tillarida teng qiymatli leksik muqobilini topish har doim ham oson emas, chunki har bir birlik ortida ma'lum lingvomadaniy model turadi. Demak, mazkur konseptni qiyosiy tadqiq etishda faqat lug'aviy muqobillik emas, balki uning mazmuniy-struktur va pragmatik ko'lamini ham hisobga olish zarur.

Xulosa. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, "ishonch" konsepti ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida murakkab mazmuniy-struktur tuzilishga ega bo'lgan aksiologik konsept hisoblanadi. U epistemik, emotsional, axloqiy va ijtimoiy komponentlarni o'zida birlashtiradi.

Ikkinchidan, mazkur konseptning yadroviy qatlamini har ikki tilda ishonish, tayanch, qabul va ijobiy baholash semalari tashkil etsa, periferik qatlamlarda milliy-madaniy tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, ingliz tilida "ishonch" konsepti *trust, confidence, belief, faith, reliance* kabi differensial birliklar orqali ko'proq tarmoqlashgan holda ifodalanadi va unda institutsional hamda individual komponentlar kuchliroq namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, o'zbek tilida "ishonch" konsepti *ishonch, ishonmoq, e'tiqod, ko'ngil to'qligi, suyanch* kabi birliklar orqali verballashadi va unda sadoqat, ma'naviy yaqinlik, axloqiy poklik hamda ko'ngil xotirjamligi semalari ustunlik qiladi.

Beshinchidan, "ishonch" konseptining frazeologik va metaforik ifodalanishi har ikki lingvomadaniyatda ushbu konseptning milliy qiyofasini belgilaydi: ingliz tilida u ko'proq boshqariladigan ijtimoiy resurs, o'zbek tilida esa oqlanishi va asralishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Oltinchidan, “ishonch” konseptini qiyosiy-lingvokulturologik o‘rganish ingliz va o‘zbek tillari egalarining dunyoqarashi, baholash mezonlari va kommunikativ strategiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. Москва, 1997, с. 267–279.

(2). Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Москва, Языки славянской культуры, 2004, 560 с.

(3). Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Москва, “Академический проект”, 2004, 992 с.

(4). Воркачев С.Г. Концепт как “зонтиковый термин”. Язык, сознание, коммуникация. 2002, №24, с. 5–12.

(5). Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, “Академия”, 2001, 208 с.

(6). Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. Москва, “Языки русской культуры”, 1999, 896 с.

(7). Longman Dictionary of Contemporary English. Harlow: Pearson Education, 2009, 2082 p.

(8). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Университет”, 2006, 476-бет.

(9). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, “Языки русской культуры”, 1996, 288 с.

(10). Leech G. Principles of Pragmatics. London, “Longman”, 1983, 250 p.

(11). Yule G. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 1996, 138 p.

(12). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York, Oxford University Press, 1997, 317 p.

(13). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980, 242 p.

(14). Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилд. Лингвистик тадқиқот методологияси. Тошкент, “Akademnashr”, 2012, 312-бет.

(15). Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Oxford, Oxford University Press, 2015, 1820 p.

(16). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 300-бет.

(17). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. Toshkent, “Fan”, 2012, 180-bet.

Mamatov Ravshanbek Rustamovich (Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ravshanbek-mamatov@mail.ru)

NEMIS YOZUVCHISI HERTA MYULLER ASARLARIDA METAFORIK TASVIRLAR TALQINI

Annotatsiya. *Herta Myuller o‘z asarlarida badiiy tasvirni xalqchil va ommabop bo‘lishi uchun metaforik tasvirlardan samarali va o‘rinli foydalangan. Herta Myuller romanlarida, asosan, ob-havo, tabiat manzalari, mevalar, hayvon va buyum nomlari bilan bog‘liq metaforalar qo‘llanilgan.*

Kalit so‘zlar: *metafora, Herztier, metaforik tasvir, leksik ma’no.*

Маматов Равшанбек Рустамович (Исполняющий обязанности доцента кафедры иностранных языков, д.ф.ф.н (PhD) Андижанского филиала Кокандского университета; ravshanbek-mamatov@mail.ru)

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НЕМЕЦКОЙ ПИСАТЕЛЬНИЦЫ ГЕРТЫ МЮЛЛЕР

Аннотация. *Герта Мюллер эффективно и уместно использовала метафорические образы в своих работах, чтобы сделать художественный образ народным и популярным. В романах Герты Мюллер в основном использовались метафоры, связанные с погодой, природными пейзажами, фруктами, названиями животных и предметов.*

Ключевые слова: *метафора, Herztier, метафорический образ, лексическое значение.*

Mamatov Ravshanbek Rustamovich (Acting Associate Docent, (PhD) of the Department of Foreign Languages at Andijan Branch of Kokand University; ravshanbek-mamatov@mail.ru)

INTERPRETATION OF METAPHORICAL IMAGERY IN THE WORKS OF THE GERMAN WRITER HERTA MÜLLER

Annotation. *Herta Muller effectively and appropriately used metaphorical images in her works to make the artistic image popular and popular. Herta Muller’s novels mainly used metaphors related to the weather, natural landscapes, fruits, names of animals and objects.*

Key words: *metaphor, Herztier, metaphorical image, lexical meaning.*

Kirish. Herta Myuller romanlarida qo‘llanilgan metaforalarning tahliliga o‘tishdan oldin mazkur badiiy tasvir vositasi haqida to‘xtalib, bu boradagi tilshunos hamda adabiyotshunos olimlarning fikrlari va ta’riflarini keltirib o‘tmoqchimiz.